

18-noyabr –

**O'zbekiston Respublikasining
Davlat bayrog'i qabul qilingan kun**

2023-yil 14-noyabr seshanba | № 45 (1405)

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz

[telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/)

ISHCHI GURUH ANDIJONDA

Adliya vaziri o'rinbosari X. Meliyev boshchiligidagi ishchi guruhning Andijon viloyatiga xizmat safari davomida sohada amalga oshirilayotgan ishlar, davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf qilish choralari, shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli idoralar tomonidan yo'l qo'yilayotgan qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish va kelgusida takrorlanishini oldini olish masalalarida seminar o'tkazildi.

DAVLAT XIZMATLARI KO'RSATISHDAGI QONUNBUZILISHLARDA KIM AYBDOR?



Ma'lumot uchun: 2023-yil davomida Andijon viloyatida 750 mingdan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatilgan.

Shu o'rinda, Adliya vazirligi tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatish axborot tizimi orqali monitoring qilinganda vakolatli tashkilotlar tomonidan ushbu davrda fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida jami 5 ming 734 ta qonun buzilish holatlari aniqlangan. Shundan 4 ming 500 tasi muddat buzish holatlari hisoblanadi.

Aniqlangan qonun buzilishi holatlari yuzasidan vakolatli idoralarga 9 ta taqdimnoma kiritilgan hamda 232 nafar mansabdor shaxsga nisbatan ma'muriy jarima qo'llanilgan.

Tadbir davomida bu kabi salbiy holatlar aholiga sifatsiz xizmat ko'rsatilishiga, sohada korrupsiya holatlari ortishiga, tashkilotlar tomonidan arizalarni asossiz rad qilinishi oqibatida fuqarolarning DXMlarga takroran murojaat qilishlari natijada DXM xodimlarining vaqti ortiqcha sarflanishiga hamda navbatlarning ortishiga sabab bo'layotgani ta'kidlandi.

Uchrashuvda, davlat xizmatlarini ko'rsatishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabablari bo'yicha rahbarlarning izohi eshutilishi bilan birga shu kabi qonun buzilishi holatlarini oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish borasida aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

O'z muxbirimiz

DAVLAT BAYROG'INING TASVIRI TUSHIRILGAN BELGILARDAN TIJORAT MAQSADIDA FOYDALANISH MUMKIN EMAS

Davlat bayrog'iga nisbatan hurmatni ta'minlagan holda uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylarida, binolar va boshqa obyektlarda, yashash yoki ish joylarida, shuningdek, ularga tutash bo'lgan hududlarda, transport vositalarining salonida foydalanishi mumkin.

Davlat bayrog'ining tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emas, bundan Davlat bayrog'iga nisbatan hurmatni ta'minlagan holda uning tasviri tushirilgan belgilardan ustki kiyim-boshni bezatish yoki O'zbekistonga tegishlilikni belgilash maqsadida foydalanish mustasno.

**“O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida”gi
O'zbekiston Respublikasi qonuni**



2 KONSTITUTSIYA VA “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI

Bosh qomusimizning 14-moddasida davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshirishi belgilangan. Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 11-sentabrda imzolangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon ana shu konstitutsiyaviy qoidaning hayotiy ifodasidir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi “Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish”, “Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish”, “Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish”, “Xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish”, “Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash” singari asosiy g‘oyalarni o‘z ichiga oladi.



Ezgu maqsadlarni o‘zida mujassamlagan hujjat

Ikkinchi asosiy g‘oya – Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘la javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish sohasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish, ularni sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta‘minlash darajasini 100 foizga yetkazish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni munosib ish bilan ta‘minlash orqali ular bandligini 2 barobarga oshirish, bu toifa shaxslarni rehabilitatsiya xizmatlari bilan to‘liq qamrab olish, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mavjud infratuzilma holatini baholash tizimini joriy qilib, qulay va maqbul muhitni yaratish, “To‘siqsiz turizm” dasturi doirasida har bir viloyatdan yiliga 1 000 nafardan nogironligi bo‘lgan shaxslarning Samarqand, Buxoro va Xivaga bepul sayohatlarini tashkil qilishdek ezgu ishlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Tibbiyot sohasida aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish yo‘nalishida esa o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, tibbiyotga yo‘naltiriladigan mablag‘lar hajmini 2 barobarga oshirish, onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo‘llari kasalliklari bo‘yicha erta o‘limni 2,5 barobar kamaytirish, sil kasalligi bilan kasallanish darajasini 100 ming aholiga nisbatan hozirgi 34 nafari keskin kamaytirish maqsad qilib olingan.

Bundan tashqari, pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, 1000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari pedagog xodimlarining o‘rtacha ish haqini 2 barobar oshirish, 500 ming nafar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish ta‘lim sohasida ko‘zlangan ijobiy marralardir.

Ehtiyoj yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni to‘liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish bo‘yicha asoslantirilgan yo‘l xaritalari belgilab olindi.

Konstitutsiyamizning 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” deya qayd etilgan. Davlatimiz rahbarining yuqoridagi farmonining qabul qilinishi nafaqat ana shu konstitutsiyaviy normaning amaldagi namunasi, balki adolatli huquqiy davlat qurish yo‘lidagi jiddiy qadamlardan biridir.

Baxtiyor QO‘SHBOQOV,

Sirdaryo tuman adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti



“O‘ZBEKISTON – 2030”

strategiyasida nimalar ko‘zda tutilgan?

Prezidentimizning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy hayotining barcha sohalarida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi.

Ta‘lim sohasida 2024-yil 1-yanvardan boshlab davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to‘yintirilgan non mahsulotlari berilishi yo‘lga qo‘yiladi. Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir va Xonqa tumanlarida eksperiment tariqasida, barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta‘lim planshetlari bilan ta‘minlanadi. Banklarning nodavlat umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun milliy valyutada ajratiladigan, qiymati 20 milliard so‘mgacha bo‘lgan kreditlar bo‘yicha, foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshadigan, lekin uning 1,5 baravaridan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun davlat budjeti hisobidan kompensatsiya taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab 10-sinf o‘quvchilari uchun kasb-hunarlariga o‘rgatish kurslari joriy etiladi. Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari uchun “tayanch maktab” etib belgilanadi.

Sog‘liqni saqlash sohasida ham bir qator islohotlar amalga oshiriladi. Xususan, 2024-yil 1-yanvardan boshlab Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi va Bolalar milliy tibbiyot markazida onkogenematologik kasalliklarga chalingan bolalarga gematopoetik suyak ko‘migi o‘zak hujayralarini transplantatsiya qilish bo‘yicha operatsiyalar davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, virusli hepatitning “S” turi bilan kasallangan bemorlarni hamda gematopoetik suyak ko‘migi o‘zak hujayralari transplantatsiyasi muolajasiga muhtoj onkologik kasalliklarga chalingan bolalarni to‘liq davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davolash yo‘lga qo‘yiladi.

2023-yil 1-oktabrdan boshlab og‘ir hayotiy vaziyatga tushgan yoki tushish xavfi yuqori bo‘lgan har bir oila bo‘yicha alohida “ijtimoiy xizmat ishi”ni yuritish tartibi amaliyotga joriy etildi. Bunda ushbu oilalarda sharoitni yax-

shilash, ularga davolash, dori vositalari bilan ta‘minlash, farzandlarini maktabgacha va maktab ta‘limi tashkilotlariga joylashtirish, moddiy yordam berish kabi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish nazarda tutilgan.

2024-yil 1-yanvardan boshlab Toshkent shahrining tibbiyot muassasalarida davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va kasallik guruhlar bo‘yicha dori vositalari ro‘yxatini nazarda tutuvchi davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar “vaucher” tizimi asosida bosqichma-bosqich protez-ortopediya buyumlari, rehabilitatsiya hamda dori vositalari bilan ta‘minlanadi.

Strategiyada fuqarolarning iqtidori va salohiyatini qo‘llab-quvvatlashga ham alohida e‘tibor qaratildi. 2024-yil 1-yanvardan boshlab og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotinqizlarni qayta kasbga tayyorlash xarajatlari davlat tomonidan qoplab beriladi.

Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash maqsadida 2023-yil 1-oktabrdan boshlab tadbirkorlik subyektlariga miqdori 10 million so‘mdan yuqori bo‘lgan soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun, agar tadbirkorlik subyekti huquqbuzarlikni inkor etsa, moliyaviy sanksiyalarni faqatgina sud tartibida qo‘llash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga hosilni sug‘urtalashda sug‘urta mukofotining 50 foizi miqdorida subsidiya berish tartibi joriy etiladi. Shuningdek, Izlanish va rivojlantirish (R&D) markazlari uchun ular tashkil etilgan kundan boshlab 3 yil muddatga mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha hisoblangan summa miqdorining 1 foizini to‘lash, ularning xodimlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida hisoblash tartibi yo‘lga qo‘yiladi. Davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan tashkilotlar tomonidan har yili amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari qiymatining kamida 5 foizini obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtirish tartibi joriy etiladi.

Xorijiy turistlar hisobidan – O‘zbekiston xalqaro aeroportlarida O‘zbekiston hududida sotib olingan va “Tax free” tizimi bo‘yicha rasmiylashtirilgan mahsulotlar uchun, tur-operatorlarga – xorijiy kontragentlar bilan shartnomalar doirasida ko‘rsatilgan eksport xizmatlari uchun jismoniy va yuridik shaxslarga qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘liq qaytarib berish tizimini joriy qilish rejalashtirilgan.

Xullas, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi orqali O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olishi, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yaratish ko‘zda tutilgan.

Nizomiddin XOLIOROV,

Oltinsoy tuman adliya bo‘limi boshlig‘i,

Luiza HASANOVA,

Oltinsoy tuman adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti

YO'L HARAKATI QOIDALARI:

MUAMMO, TAKLIF VA YECHIM

Mamlakatimizda yo'l-transport hodisalarining oldini olish, yo'l harakati qoidalarini yanada takomillashtirish hamda harakat xavfsizligini nazorat qilish va samaradorligini oshirish maqsadida 2022-yil 12-aprelda Vazirlar Mahkamasining "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida yangi tahrirdagi "Yo'l harakati qoidalarini" amalga kirdi va yo'l harakati qoidalariga o'zgartirishlar kiritildi.

Shu o'rinda e'tiboringizni yo'llarda juda ko'p uchraydigan bir holat – quvib o'tish tushunchasi va quvib o'tish qoidalariga qaratmoqchiman. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabr-dagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Yo'l harakati qoidalarida quvib o'tish tushunchasi quyidagicha yoritilgan. Jumladan, quvib o'tish – egallangan harakatlanish bo'lagidan chiqib, oldinda harakatlanayotgan transport vositasidan o'zib ketish.

Amaldagi Yo'l harakati qoidalariga ko'ra esa, quvib o'tish – bir yoki bir nechta transport vositalarini qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan tasmaga chiqib, so'ngra ilgari egallagan qatoriga qaytib o'tish bilan bog'liq bo'lgan o'zib ketish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, transport vositasi qarama-qarshi yo'nalishga chiqib transport vositasidan o'zib ketishi, so'ngra egallagan qatoriga qaytib olish holati quvib o'tish, deyiladi.

Shuningdek, ushbu qoidalar bilan qayta tizilish va o'zib ketishga quyidagicha ta'rif berilgan:

- qayta tizilish – dastlabki harakat yo'nalishini saqlagan holda o'z harakatlanish tasmadan boshqa harakatlanish qatoriga o'tish;
- o'zib ketish – transport vositasining bir yo'nalishda transport vositasi tezligidan ortiq tezlikda harakatlanishi.

Amaldagi Yo'l harakati qoidalarining 83-bandi talablariga ko'ra, bir yo'nalishda harakatlanayotgan relssiz transport vositalarini har ikki tomonidan o'zib ketishga ruxsat beriladi. Biroq chappaga burilish ishorasini berib, burilishga kirishgan transport vositasidan o'zib ketish o'ng tomondan amalga oshiriladi. Bundan ko'rinadiki, oldinda harakatlangan transport vositasining o'ng tomondan harakat bo'lagini o'zgartirib ham o'zib ketish mumkin. Bu holat amaldagi Yo'l harakati qoidalarini bilan taqiqlanmagan.

Avvalgi Yo'l harakati qoidalarining 83-bandi talablariga ko'ra, quvib o'tish tushunchasidan kelib chiqib, relssiz transport vositasini faqat chap tomondan quvib o'tishga ruxsat beriladi. Biroq chappaga burilish ishorasini berib, burilishga kirishgan transport vositasini quvib o'tish o'ng tomondan amalga oshiriladi.

MUAMMO NIMADA?

Hozirgi vaqtda sud-tergov idoralari va ekspertlar tomonidan o'zib ketish bilan bog'liq bo'lgan holatlarda haydovchining harakatlariga amaldagi Yo'l harakati qoidalarini doirasida baho berishda qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda. Masalan, transport vositasi haydovchisi oldindagi transport vositasidan o'zib ketishi uchun o'z harakat qatorini o'zgartirib, o'ng tomondan (yoki chap tomondan) o'zib ketishi vaqtida o'ng qatorda turgan (yoki harakatlanayotgan) piyoda yoki transport vositalari bilan to'qnashib, yo'l-transport hodisalarini sodir etmoqda. Ushbu masalaning dolzarbligi shundaki, xuddi shunday holatlar hozirgi vaqtda haydovchining harakatlariga baho berishda amaldagi Yo'l harakati qoidalarining 53-bandi talablaridan kelib chiqib hal etilmoqda. Unga ko'ra, ya'ni amaldagi Yo'l harakati qoidalarining 53-bandi talablariga ko'ra, haydovchi harakatlanishni boshlash, manyovr qilish (qayta tizilish, burilish, qayrilib olish, quvib o'tish va aylanib o'tish) va to'xtashdan oldin bajarilayotgan manyovr boshqa yo'l harakati qatnashchilarining harakatlanishiga xavf tug'dirmasligi kerak.

E'tibor bering, ushbu talablar bilan bir qatorda harakatlanayotgan transport vositasi harakatdagi boshqa transport vositalariga yo'l berishi va xavf tug'dirmasligi kerakligi nazarda tutilgan!

Transport vositalarining o'ng tomondan o'zib ketishi bo'yicha amaldagi Yo'l harakati qoidalarida hech qanday band belgilanmagani xavfli vaziyatlarni yuzaga keltirishi, yo'l-transport hodisalarini sonining ortishiga olib kelishi mumkin. Birinchidan, transport vositasining o'ng tomondan o'zib ketishi yo'l-transport hodisasini keltirib chiqarishi mumkin.




Ikkinchidan, o'ng tomondagi transport vositasidan o'zib ketishda yana bir jihat ko'zga tashlanadi. O'ng qatorga o'tishda ko'rinish cheklangan. Haydovchining o'rindig'idan o'ng tomondagi qatordagi xavf yoki to'siqni qatorga to'liq o'tib bo'lgandan keyin ko'rish mumkin. Yo'lda esa doimo hushyorlik kerak! Bunday o'zib o'tishning oqibati yomon bo'lishi mumkin.

Shu sabablarga ko'ra, hozirgi amaldagi Yo'l harakati qoidalariga amal qilgan transport vositasi haydovchisi o'ng tomondan o'zib ketishda juda ehtiyotkorlik bilan o'ng qatorga o'tib o'zib ketishi lozim bo'ladi. Lekin hech kim bu holatda tasodifiy baxtsiz hodisalar bo'lmasligiga kafolat bera olmaydi.

QONUNCHILIKKA TAKLIF

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, amaldagi Yo'l harakati qoidalarining 83-bandiga qo'shimcha kiritish lozim. Ya'ni, haydovchi o'ng va chap tomondan o'zib ketishga chiqishdan avval o'zib ketmoqchi bo'lgan qatori bo'sh ekanligiga va xavf yoki to'siq yo'qligiga ishonch hosil qilishi lozim, deb belgilanishi kerak. Yoki o'ng tomondan o'zib ketishni butunlay taqiqlash lozim.



Amaldagi Yo'l harakati qoidalarining 86-bandi talablariga ko'ra, quvib o'tish quyidagi hollarda taqiqlanadi:

- tartibga solingan chorraxalarda;
- tartibga solinmaydigan chorraxalarda asosiy hisoblanmaydigan yo'llarda harakatlanishda;
- ko'priklarda, yo'l o'tkazgichlarda, estakadalarda va ularning ostida;
- piyodalar o'tish joylarida;
- temir yo'l kesishmalarida va ular-gacha 100 metrdan kam masofa qolganda;
- quvib yoki aylanib o'tayotgan transport vositalarini;
- tepalikning oxirida va yo'lning ko'rinishi cheklangan joylarida.

Ushbu banddan kelib chiqib, o'zib ketishni ham (o'z harakat bo'lagini o'zgartirish orqali) tartibga solingan chorraxalarda:

- tartibga solinmaydigan chorraxalarda asosiy hisoblanmaydigan yo'llarda harakatlanishda;
- piyodalar o'tish joylarida;
- tepalikning oxirida va yo'lning ko'rinishi cheklangan joylarida taqiqlash o'rinni.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori asosida "Yo'l harakati qoidalarini" amalga kiritilganidan so'ng o'ng yoki chap tomondan o'zib ketish oqibatida yo'l-transport hodisalarini sodir etilishi bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarini soni ortdi. Buni shunday hodisalar bilan bog'liq sud ekspertizasi olib borilishiga bo'lgan talablar soni ortganida ham ko'rish mumkin. Bunday holatda haydovchilarning hodisaning oldini olish imkoniyatini aniqlash so'ralmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday holatlarda haydovchi o'zib o'tish bo'yicha o'z yo'nalishini, ya'ni turgan qatorini to'liq o'zgartirib bo'lganidan so'ng xavf yoki to'siq paydo bo'lganmi yoki boshqacha holat yuz berganmi, aniqlash mushkul. Masalan, haydovchi o'zib ketishga o'tayotgan vaqtida xavf yoki to'siq uning harakatiga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Buni to'g'ri aniqlash muhim, albatta. Bu holatga tergov organi aniqlik kiritishi lozim. Bunday holatlarda tergov yo'li bilan ham (agar videotasvir yoki guvohlar bo'lmasa) haydovchining aybdorligini isbotlash qiyin.

Shu sababli transport vositalarining o'ng tomondan o'zib ketishi bilan bog'liq harakatga amaldagi "Yo'l harakati qoidalarini"da aniqlik kiritish yoki aynan shu bandga tegishli qo'shimchalar kiritish lozim. Biz taklif qilayotgan qoida bo'yicha esa – haydovchining o'ng tomondan harakat bo'lagini o'zgartirib o'zib ketishini taqiqlash lozim. Bu bilan yo'l-transport hodisalarining oldi olingan bo'lar edi. Eng muhimi, haydovchilarning harakatlariga sud-tergov iddaolari va ekspertlar tomonidan baho berishda qiyinchiliklar va noaniqliklar tug'ilmagan bo'lar edi.

Zafarjon SAYFUTDINOV,
X. Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi
yetakchi eksperti

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

NAVOIY

Navoiy viloyatida ko'zga ko'ringan tadbirkorlardan G'. Jo'rayev soliq idoralari faoliyatidan norozi bo'lib viloyat adliya boshqarmasiga murojaat qildi. Tadbirkor noqonuniy tarzda soliqqa tortilganidan shikoyat qilgan. G'. Jo'rayev boshqarayotgan "Navoiy FSK" mas'uliyati cheklangan jamiyat hisob raqamidan noqonuniy yechib olingan soliq miqdori oz emas – 872 million 835 ming so'm.



OTANGGA BOR, ONANGGA BOR AYBDOR TADBIRKOR

Aslida tadbirkor Narpay tumanidagi "Davlatbek Diyorbek Servis" oilaviy korxonasi tegishli "Tehnotak" tosh maydalash (sheben) zavodi bino-inshootlarini sotib olgan. Keyinchalik, Narpay tuman hokimligi huzuridagi foydalanilmayotgan obyektlarni aniqlash bo'yicha ishchi guruh xulosasiga ko'ra, mazkur bino-inshootlarga nisbatan ta'sirchan soliq mexanizmi qo'llanilgan. Aniqrog'i, ishchi guruh bu inshootni nol qiymatda ko'rsatib, go'yoki foydalanilmayotgan obyekt degan xulosani tegishli idoralarga taqdim etgan. Aslida esa bu inshoot 2021-yil 4-yanvar kuni tuzilgan 3-sonli ijara shartnomasiga asosan "Narpay shoxislombek" xususiy korxonasi ijara berilgan. Narpay tuman hokimligi huzuridagi ishchi guruhning birgina noto'g'ri xulosasi tufayli 2021-yildan buyon tadbirkor o'z mablag'ini davlatdan qaytara olmay sarson.

Tadbirkor 2022-yilning iyul-avgust oylarida O'zbekiston savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi tomonidan uning manfaatida Samarqand tumanlararo ma'muriy sudiga va Samarqand viloyat ma'muriy sudiga qilgan murojaatlariga rad javobini olgan. Narpay tuman hokimligi huzuridagi ishchi guruhning bergan xulosasi asossiz ekanini isbotlash uchun Navoiy viloyat adliya boshqarmasiga murojaat qildi.

Viloyat adliya boshqarmasiga qilingan murojaat besamar ketmadi. Tadbirkor manfaatida sudga da'vo arizasi kiritildi. 2023-yilning 10-mart kuni Oliy sudning ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati Narpay tuman hokimligi huzuridagi ishchi guruhning xulosasini asossiz deb topdi. Shundan so'ng viloyat adliya boshqarmasi Kattaqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudga tadbirkordan noqonuniy undirilgan mablag'ni qaytarish yuzasidan da'vo arizasi kiritdi. Sud tadbirkorni noqonuniy soliqqa tortilgan deb topdi va bu muammo adolatli yechim topdi.

Navoiy viloyat adliya boshqarmasi
Axborot xizmati

XORAZM

MAVSUMIY XODIMLAR ham mehnat ta'tili oladimi?

Iqlim va boshqa tabiiy sharoitlar tufayli muayyan davr davomida bajariladigan ishlar mavsumiy ish deyiladi. Mavsumiy ishlarining davomiyligi, qoida tariqasida, olti oydan oshmasligi kerak.



Mehnat kodeksining 492-moddasiga ko'ra, ishning mavsumiy xususiyati to'g'risidagi shart mehnat shartnomasida ko'rsatilishi kerakligi, mavsumiy xodimlarni ishga qabul qilish chog'ida sinov muddati belgilanmasligi, mavsumiy xodimlar bilan mehnat shartnomasi mavsumning davomiyligidan oshmaydigan muddatga tuzilishi belgilangan.

Mavsumiy xodimlar ishning har bir oyi uchun kamida ikki kalendar kun hisobidan haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega.

Shuningdek, Mehnat kodeksining 492-moddasiga asosan, mavsumiy xodim ish beruvchini uch kalendar kun oldin yozma shaklda ogohlantirib, mehnat shartnomasini o'z tashabbusiga ko'ra bekor qilishga haqli. Ish beruvchi mehnat shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish xususidagi o'z niyati to'g'risida mavsumiy xodimni tashkilot (uning alohida bo'linmasi) tugatilishi munosabati bilan (ushbu Kodeks 161-moddasi ikkin-

chi qismining 1-bandi), shuningdek, xodimlarning soni yoki shtati o'zgarishi munosabati bilan (ushbu Kodeks 161-moddasi ikkinchi qismining 2-bandi) mehnat shartnomasi bekor qilinganda kamida yetti kalendar kun oldin hamda mavsumiy xodim malakasi yetarli bo'lmagani sababli bajarayotgan ishga nomuvofiqligi munosabati bilan (ushbu Kodeks 161-moddasi ikkinchi qismining 3-bandi) mehnat shartnomasi bekor qilinganda kamida uch kalendar kun oldin yozma shaklda, imzo qo'ydirib ogohlantirishi shart. Mavsumiy xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) bilan bog'liq asoslarga ko'ra bekor qilingan taqdirda, mavsumiy xodim o'zi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishidan kamida bir kun oldin yozma shaklda ogohlantirishi belgilangan.

Manzura SADIKOVA,
Tuproqqal'a tuman adliya bo'limi yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

QORAQALPOG'ISTON

Qonliqo'l tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro K. Yeshmuratov va 36 nafar fuqaroning ko'p yillik ish stajiga ega bo'lishiga qaramasdan, olayotgan pensiyalari kam ekanligidan norozi bo'lib yo'llagan murojaatlari o'rganib chiqildi.

37 NAFAR FUQARONING PENSIYASI QAYTA HISOB-KITOB QILINDI



Aniqlanishicha, fuqarolarning mehnat daftarchalarida ular ishlagan muassasa va tashkilotlar yozilgan bo'lishiga qaramasdan, uzoq yillar davomida mehnat qilgan ko'pchilik fuqarolarning ish stajlari, ish haqi va davlat pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langanini tasdiqlovchi ma'lumotlar, ya'ni Davlat arxivida ish haqlari to'g'risida ma'lumotlar to'liq bo'lmagani sababli pensiya tayinlash jarayonida hisobga olinmasdan qolib ketgani ma'lum bo'ldi.

Ushbu holatning yuzaga kelishiga, O'zbekiston Respublikasining "Davlat pensiya taminoti to'g'risida"gi qonunining 37-moddasining "a" bandida belgilangan tartibda, Davlat pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langanini tasdiqlovchi ma'lumotlar saqlanmagani sabab bo'lgan.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 125-moddasiga ko'ra, mehnat daftarchasi mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Qolaversa, yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida, huquqni qo'llash amaliyotida davlat va inson o'rtasidagi ziddiyatli holatlar yuzaga kelgan taqdirda masala inson foydasiga hal etilishi belgilangan.

Murojaatlarni o'rganish natijalariga ko'ra, fuqarolarning huquqlari tuman adliya bo'limi tomonidan berilgan da'vo arizasi asosida 37 nafar fuqaroning ishi Nukus tumanlararo ma'muriy sudi tomonidan sud majlisida ko'rib chiqildi. Muammoga adolatli yechim topilib, fuqarolarning pensiyalari ma'lum miqdorda ko'payishiga erishildi.

Asilbek ISKENDEROV,
Qonliqo'l tuman adliya bo'limi boshlig'i

SIRDARYO

"Production" xususiy korxonasi loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash xizmatini ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Korxonaxarid.uzex.uz portali orqali Sirdaryo viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan portalga joriy ta'mirlashga loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash xizmatini bajarish uchun joylashtirilgan lot g'olibi bo'lib, ular o'rtasida 2023-yil 27-mart kuni elektron shartnoma imzolangan. Biroq, shartnomaga muvofiq sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash topshirig'i va nuqson dalolatnomasi taqdim etilmagan.

G'OLIB KORXONA SARSON BO'LDI

"Production" xususiy korxonasi rahbari Sh. Jumanovning Adliya vazirligiga pm.gov.uz orqali yo'llagan shu haqdagi murojaati Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganildi. Fuqarolik kodeksining 237-moddasiga asosan majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Murojaatni o'rganish jarayonida tarafdorlar qonunchilikda belgilangan ushbu norma batafsil tushuntirilib, yuzaga kelgan muammoli vaziyat bartaraf etildi. Adliya aralashuvi bilan sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan "Production" xususiy korxonasi loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash topshirig'i va nuqson dalolatnomasi taqdim etildi hamda bajarilgan ishlar qabul qilinib, lot g'olibiga pul mablag'i to'lab berilishi ta'minlandi.

Javohir KOMILOV,
Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul
xodimi

Sir emaski, ayrim yurtdoshlarimiz moddiy yordam va mukofot pulini unchalik farqlashmaydi. Vaholanki, moddiy yordam va mukofot puli bir-biridan butunlay farq qiladi. Shunday ekan, haqli savol tug'iladi: xo'sh, moddiy yordam va mukofot puli qachon va qay tartibda beriladi?

O'QITUVCHILAR MUKOFOT PULI OLIISHGA HAQLI!



Masalan, o'qituvchi yetarli asoslar bo'lganda moddiy yordam olishga haqli bo'ladi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi "Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan hukumatning 2019-yil 30-sentabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori 33-bandiga o'zgartirish kiritilgan. Unga ko'ra, umumta'lim muassasalari xodimlariga moddiy yordam kalendar yil davomida xodimning o'zi va yaqin qarindoshi (otasi, onasi, turmush o'rtog'i, farzandi)

vafot etganda, og'ir kasallikka chalinganda va xodim tabiiy ofatdan zarar ko'rganda ikki lavozim maoshi (o'qituvchining tarif stavkasi) miqdorigacha ko'rsatiladi.

Qoidaning mazmuniga muvofiq, xodim maktabda mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan davrda yuqoridagi holatlar sodir bo'lsa, direktor jamg'armasida mablag' yetarli bo'lgan taqdirda xodim 2 lavozim maoshi miqdorida moddiy yordam olishga haqli. Ya'ni, xodim 1 kalendar yilda lavozim maoshining 2 baravarigacha moddiy yordam olishi mumkin. "Xalq ta'limi vazirining jamg'armasi to'g'risidagi nizom"ning 29-bandiga binoan, umumta'lim muassasalari xodimlari, shu jumladan rahbar xodimlari faqat "1 oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan jamg'armaning mavjud mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 50 foizigacha miqdorida mukofotlanishi va mazkur mukofot har o'quv yili uchun berilishi mumkin. Nizomda "Bir marta mukofot olgan o'qituvchi kelasi yil mukofot olmasligi kerak" degan mazmundagi cheklov yo'q. Shuningdek, aynan qanday asoslarga ko'ra mukofot berilishi haqida ham aniq qoida mavjud emas.

Mehnat kodeksining 252-moddasida mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilmagan rag'batlantiruvchi mukofot bir marta beriladigan xususiyatga ega bo'lgan hamda ish beruvchining qaroriga asosan xodimning oldindan belgilangan ko'rsatkichlar va shartlarga erishganligi uchun emas, balki muayyan voqealar (yubiley, bayram sanalari va boshqalar) yuz bergani yoki xodim tomonidan muayyan harakatlar amalga oshirilgani (ish beruvchining alohida muhim topshirig'ini bajarish, ratsionalizatorlik taklifini kiritish va boshqalar) munosabati bilan to'lanadigan pul mukofoti ekanligi belgilangan. Shundan kelib chiqqanda, 1-oktabr munosabati bilan hamma o'qituvchilar mukofot olishga haqli. Biroq bunda maktabning smetasida qo'shimcha pul mablag'i bo'lishi zarur.

Nodirjon SHOIMOV,

Boysun tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 501-moddasi birinchi qismiga ko'ra, "umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlarning bolalarni o'qitish yoki tarbiyalash bilan bevosita shug'ullanuvchi pedagog xodimlari va boshqa xodimlari Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan tartibda dastlabki tarzda (ishga qabul qilish chog'ida) va davriy (ish jarayonida) majburiy tibbiy ko'riklardan o'tadi". Shu sababli pedagog xodimlar bir yilda bir marta, albatta, tibbiy ko'riklardan o'tishlari talab etiladi.

TIBBIY KO'RIK PEDAGOGLAR UCHUN BEPULMI?



O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 46-moddasida pedagog xodimlarning majburiyatlari belgilangan. Unga ko'ra, majburiy tibbiy ko'riklardan o'z vaqtida o'tish shart. Ushbu qonunning 45-moddasida esa, pedagog xodimlar davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'riklardan o'tish huquqiga egaligi haqidagi qoida mavjud.

Ma'lumki, o'qituvchilar uchun respublikamizning barcha shahar va tumanlaridagi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda tibbiy ko'rik bepul bo'lishi belgilab qo'yilgan. Lekin tibbiy ko'riklardan o'tishning ham o'z tartibi bor, albatta.

Qonunchiligimizga ko'ra, xodimlar Sog'liqni saqlash vazirligining 2012-yil 10-iyuldagi "Xodimlarni tibbiy ko'riklardan o'tkazish tartibi to'g'ri-

sidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 200-sonli buyrug'i asosida tibbiy ko'riklardan o'tkaziladi. Ushbu jarayonda tuman SEO, ish beruvchi, kasaba uyushma qo'mitasi va tibbiyot muassasalariga bir qator vazifalar belgilanadi. Ya'ni, ish beruvchi direktor hududiy SEO va maktab kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan birgalikda har kalendar yilning 1-dekabrigacha tibbiy ko'riklardan o'tkazilishi shart bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzadi va tibbiy ko'rikni o'tkazuvchi davolash-profilaktika muassasasiga taqdim etadi. Taqdim etilgan ro'yxat asosida xodimlar tibbiy ko'riklardan o'tkaziladi. Mehnat kodeksining 360-moddasiga ko'ra, xodimlar majburiy tibbiy ko'riklardan o'tishi munosabati bilan chiqimdor bo'lmaydi.

Majburiy tibbiy ko'riklarni o'tkazish vaqtida xodimning ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi. Agarda pedagog xodimlardan tibbiy ko'rik uchun pul talab qilish holatlari kuzatilsa, ular o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tuman kengashi yoki adliya bo'limlariga murojaat qilishlari mumkin.

Iskandar SAFAROV,

Boysun tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda yurtimizda sud-huquq sohasini tubdan takomillashtirish borasida qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada huquqbuzarlikdan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinishi, davlat jabrlanganlarga himoyalashni va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlashi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratishiga oid qoidalar aniq belgilab qo'yildi.

PROTSESSUAL CHIQIMLARNI

TO'LASH TARTIBLARI TASDIQLANDI

Biroq, bugungi kunda ushbu sohada ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarning to'lanishiga doir ayrim muammo va kamchiliklar ham mavjud. Bu esa, o'z navbatida, amaliyotda turli xil muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarning ahamiyatini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- ✔ ishlarni ko'rib chiqish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib beradi;
- ✔ protsess ishtirokchilarining moddiy manfaatlarini samarali muhofazalaydi, bu o'z navbatida ularning protsesslarda to'liq va o'z vaqtida ishtirokini ta'minlaydi;
- ✔ turli sohaga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar hamda zarur ma'lumotga ega ishtirokchilarni ko'proq jalb etish orqali ish sifatini oshiradi;
- ✔ ishlarni yuritishda sarflangan xarajatlar miqdorini aniqlash va ularni undirib olishni ta'minlaydi.

Boshqacha aytganda, mazkur institut tom ma'noda protsessning moliyaviy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, shunga qaramasdan, bugungi kunda protsessual chiqimlar instituti amalda to'liq ishlamayapti.

Xususan, 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan "Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarining qilgan xarajatlarini to'lash tartibi va miqdorlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni bugungi kun talablariga javob bermaganligi uchun 2022-yil 4-noyabrdan bekor qilindi.

Mazkur qonunda to'lovni amalga oshirish manbalari, to'lab berish tartib va mexanizmlari belgilab berilmagan edi. Shuningdek, unda shartnoma asosida ekspert va mutaxassislarni jalb etish imkoniyati yaratilganligi hisobga olinmagan, to'lovlar judayam kam miqdorni tashkil etgan.

Qonunga asosan doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilar, guvohlar va xolislariga ularni odatdagi mashg'ulotidan chalg'itganlik uchun to'lovlar budjet mablag'lari hisobidan to'lab berilishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, buni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari yaratilmagan edi.

Yuqoridagi kabi muammolarni ijobiy hal etish maqsadida Hukumat qarori bilan Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Unda bir qator yangiliklar mavjud.

Mazkur nizomda jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislariga to'lanadigan to'lovlar va qoplab beriladigan xarajatlar turlari nazarda tutildi.

Xususan, doimiy yashash joylari uzoqda bo'lganlar uchun kelib-ketish xarajatlari, mehmonxona xarajatlari, kundalik xarajatlari, ekspert, tarjimon, mutaxassisga xizmat topshirig'i bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarni bajarganlik uchun to'lovlar hamda doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilar, guvohlar va xolislar odatdagi mashg'ulotidan chalg'itganlik uchun to'lovlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislariga to'lanadigan to'lovlar va xarajatlarni qoplash miqdorlari belgilab berildi.

To'lovlar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning qarori (ajrimi)ga asosan 10 kunlik muddatda to'lab beriladi. Bu o'z navbatida, sud va tergov jarayonlariga ishda ko'maklashuvchi shaxslarni jalb qilishda qulaylik yaratish bilan birga, ularning qilgan xarajatlarini to'liq qoplanishiga ham imkon yaratadi.

Mirkomil BOZOROV,
Muboraxon TOJIYEVA,
Adliya vazirligi mas'ul xodimlari

6 BONG

Ma'lumki, ma'muriy sudlar davlat organlari bilan fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi ommaviy-huquqiy munosabatlarni samarali hal qilishga qaratilgan huquqiy institutdir. Shundan kelib chiqib aytganda, mamlakatimizda amalg oshirilayotgan sud-huquq islohotlari ma'muriy sudlar faoliyatida yaqqolroq namoyon bo'lmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, ma'muriy odil sudlov bundan keyin ham islohotlar markazida turishini anglatadi.

SUD-HUQUQ ISLOHOTLARI SAMARASI

MA'MURIY SUDLAR FAOLIYATIDA HAM NAMOYON BO'LMOQDA

Ta'kidlash joizki, 2023-yil 30-aprel kuni yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 134-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Ya'ni, Bosh qomusimizda ma'muriy sudlarning fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari bilan davlat organlari o'rtasida yuzaga keladigan ma'muriy-huquqiy munosabatlarda ularning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi o'rnini jiddiy ravishda oshirish nazarda tutilgan. Shu bois, ma'muriy sudlov tizimidagi bir necha muammolar yechimiga qaratilgan vazifalarni to'g'ri anglash yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalda tatbiq etishda muhim omil hisoblanadi.

Ma'muriy sud amaliyotida sudga taalluqlilik masalasida yuzaga kelayotgan savollarga yechimni faqat yuqori instansiya sudlarining ko'rsatmasi va amaliyoti bilan emas, balki bu borada boy tajribaga ega bo'lgan mamlakatlar hamda ma'muriy huquqning ilmiy-nazariy asoslariga murojaat qilish orqali topish o'rinni.

Ayrim hollarda ma'muriy sud ish yurituvini va fuqarolik sud ish yurituvini (iqtisodiy sud ish yurituvini)ning farqini to'g'ri tushunmaslik tufayli protsessual qonunlar qoidalarini noto'g'ri qo'llanmoqda. Binobarin, protsessual qonunlarimizdagi tarafdorlarning tortishuvi va teng huquqliligi prinsipining iqtisodiy protsessual kodeksning 9-moddasi, Fuqarolik protsessual kodeksning 10-moddasi, shuningdek, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 67-moddasi (isbotlash majburiyati), FPKning 72-moddasi (Isbotlash va dalillarni taqdim etish majburiyati), IPKning 68-moddasi (Isbotlash majburiyati)da farqlar mavjudligini to'g'ri tushunib olish lozim. Chunki bu uch sud ish yurituvining alohida protsessual qonun bilan tartibga solinishi sud ish yurituvini tartibida ham farq borligini ko'rsatadi. Agar ushbu jihatda farq bo'lmasa, alohida protsessual qonun emas, yagona qonun asosida ham mazkur masalalarni tartibga solish mumkin edi.

Ma'muriy sud ish yurituvining fuqarolik sud ish yurituvini (iqtisodiy sud ish yurituvini)dan farqi "sudning faol ishtiroki" tamoyili yoki "inkvizitsion" tamoyilga ham bog'liq. Inkvizitsion tamoyil sud ish yurituvining tarafdorlarning notengligi, isbotlash majburiyatining ma'muriy organ zimmasiga yuklatilishi kabilar bilan ham tavsiflanadi. Bu esa o'z navbatida, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning sud ish yuritish tartibi, dalillar va isbotlash bilan bog'liq qoidalariga jiddiy o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etadi.

Umid qilamizki, kelgusida ma'muriy sud ishlarini yuritish sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi. O'z navbatida, ma'muriy huquq sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan tadqiqotchilar va amaliyotchilar ma'muriy sudlar tomonidan fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi o'rnini jiddiy ravishda oshirishga munosib hissa qo'shishadi.

Jo'rabek NE'MATOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori

JINOYATNING TURI KO'P, UNING OLDINI OLISH ESA O'ZIMIZGA BOG'LIQ

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jinoyatchilikning oldini olish, bartaraf etish, sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo muqarrar ekanligi belgilab qo'yilgan.

Qush uyasi ko'rganini qiladi, deydilar. Oila-da farzand tarbiyasi ota-onaga bog'liq bo'lib, bola maktabdagi ustozlaridan ham ta'lim-tarbiya oladi. Oiladagi muhit farzandlarning tarbiyasiga, xulq-atvoriga ta'sir qiladi, albatta. Yaxshi tarbiya farzandlarning xulqi ijobiy tomonga o'zgarishiga sababchi bo'ladi. Maktabdagi ta'lim-tarbiya, bolaning namunali xulqi va yaxshi o'qishi orqali uni o'zi tanlagan kasbga yo'naltirish mumkin. Har bir yosh ota-onasidan, kattalardan, ustozlaridan olgan ta'lim-tarbiya asosida o'sib-ulg'ayadi.

Farzandni tarbiyalash, unga ilm berish, kasb o'rgatish qadimdan eng mas'uliyatli vazifa sanalgan. Odob-axloq, yoshi ulug'larga hurmat, mehr-oqibat, oilaga, kindik qoni to'kilgan zaminga sadoqat fazilatlarini kamol toptirish bola tarbiyasida eng muhim jihatlardan hisoblangan.

Jinoyatning turi ko'p, uning oldini olish esa o'zimizga bog'liq. Hozirgi kunda ko'p uchrayotgan jinoyatlarning oldini olish maqsadida profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda mahallalarda huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda. Xonadonma-xonadon yurib, tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bunday tushuntirish ishlari va huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazilishi natijasida sezilarli o'zgarishlar bo'lmoqda.

Sariosiyo tuman adliya bo'limi va yuridik xizmat ko'rsatish markazi mas'ul xodimlari tuman IIB profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda Mirzo Ulug'bek mahallasida joylashgan maktablar va xonadonlarda bo'lishdi. Mahalla raisi, yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi va mahalla xotin-qizlar faoli ishtirokida jinoyatchilikning bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik kabi turlarining oldini olish, shu kabi boshqa jinoyatlar sodir etilganda shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazolarning muqarrarligi alohida ta'kidlandi. Huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, avvalo, oiladan, mahalladan boshlanishi aytiladi.

Barcha tarixiy davrlarda ham yoshlar tarbiyasi, ularning dunyoqarashi va o'zligini anglashi masalasi mamlakat taraqqiyoti, mustaqilligi, kelajagini kafolatlovchi muhim omil sanalgan. Abdulla Avloniy aytganidek: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Yoshlar tarbiyasi masalasi, ayniqsa bugungi kunda, globallashuv jarayoni hayotimizning barcha sohalarini qamrab olayotgan sharoitda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kelajagimiz – yoshlar qo'lida. Ertangi kunimizni yoshlarsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Shuning uchun yoshlarni tarbiyalashda oila, maktab va mahallaning o'rni kattadir. Huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish esa, biz – kattalarning muhim vazifalarimizdan biridir.

Najmiddin ESHMURZAYEV,

Sariosiyo tuman adliya bo'limi bosh yuriskonsulti

2022-yil sentabr oyining oxirlari edi. Buvayda tumanining "Oltinqo'rg'on" mahallasida yashovchi Ma'rufjon Ashurov (ism-shariflari o'zgartirilgan)ning telefoniga qo'ng'iroq bo'ldi. Go'shakni ko'tarib, nalima-alik qilgan holda javob berar ekan, Ma'rufjon aka qo'ng'iroq sohibi aksiyadorlik tijorat "Xalq banki" Uchko'priq filialining mas'ul xodimi ekanini eshitib, hayron bo'ldi.

TADBIRKOR IMTIYOZLI KREDIT MABLAG'LARINI "TUVA" QILDI



– Kreditdan qarz bo'lib qolibsiz. Iltimos, to'lab qo'ysangiz, – deydi bank mas'uli.

– Uka, yangilishmadingizmi? Axir men hali kredit olganim yo'q-ku, – deya ajablanadi. M. Ashurov bir yarim oycha avval rafiqasi Barchinoy Ashurovaga tikuv dastgohi sotib olish maqsadida kredit ajratishini so'rab, bankka ariza topshirgani esiga tushadi.

– Yangilishmayapman, hurmatli mijoz. Mana, qo'limda kredit hujjatlari turibdi. Ularda sizning telefon raqamingiz ko'rsatilgan.

Bankir yigit shunday deb "Oltinqo'rg'on" MFY hokim yordamchisi Z. Bozorovning tavsiyasiga binoan 5 dona tikuv dastgohi xarid qilish uchun 2022-yil 9-sentabrda 33 million so'm imtiyozli

kredit ajratilganini bildiradi. Eng muhimi, kredit mablag'i tikuv dastgohlarini yetkazib beruvchi "AXS Sof Ta'minot" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'tkazib berilganini ham ta'kidlaydi.

Aniqlanishicha, 2022-yil avgust oyida Ma'rufjon aka tikuv dastgohlari xarid qilish maqsadida kredit olish yuzasidan tanishi Elshod Botirovga maslahat soladi. O'z navbatida E. Botirov uni qarindoshi, tumandagi "Murtazo Oqqo'rg'on Fayz" xususiy korxonasi va "AXS Sof Ta'minot" MChJ rahbari Rashidbek Abduhalimovga ro'baro' qiladi.

Shundan so'ng M. Ashurov fuqarolik pasporti nusxasi elektron raqamli imzosini Elshodning telegramm ijtimoiy tarmog'idagi raqamiga jo'natadi. E. Botirov esa mazkur hujjatlarni R. Abduhalimovga yetkazadi. Oqibatda Rashidbek "Oltinqo'rg'on" MFY hokim yordamchisi Z. Bozorovning tavsiyanomasini qo'lga kiritib, Ma'rufjon Ashurov nomiga 33 million so'm miqdorida kredit ajratilishiga erishadi. Keyin kredit mablag'ini o'zining "AXS Sof Ta'minot" MChJ hisob raqamiga o'tkazib naqdlashtirgan holda o'zlashtirib yuboradi.

Buni qarangi, Ma'rufjon Ashurov Rashidbek Abduhalimov nomiga kredit mablag'i rasmiylashtirib, "tuva" qilgan yagona fuqaro emas ekan. Nega-ki, ustamon tadbirkor hujjatlarni qalbakilashtirish orqali AT "Xalq banki"ning Uchko'priq va Buvayda filiallaridan fuqaro N. Jumayevaning nomiga 6,2 million so'm, G. Kamolovning nomiga 27,8 million so'm, D. Mamatovning nomiga 13,9 million so'm miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratilishiga erishgan ekan. Aniqrog'i, u 80,9 million so'm kreditni o'zlashtirib, talon-toroj qilgan. Binobarin, R. Abduhalimovga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atiladi.

Mazkur ishni ko'rib chiqqan jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi esa uni Jinoyat kodeksining 167-moddasi ikkinchi qismi "b, v, g" bandlari va 228-moddasi ikkinchi qismi "a, b" bandlari bilan aybdor deb topib, qonuniy jazoga mahkum etdi.

Po'latjon MAMATUSMONOV,

jinoiyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi sudyasi



Savollarga Samarqand viloyat
adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

Olim MAMAYUSUPOV
javob berdi



ARIZANING JAVOBI QANDAY OLINADI?

– Farzandimni bog'chaga navbatga qo'ygan edim. Odatda, ariza javobini olish uchun davlat xizmatlari markaziga takroran borishga to'g'ri kelar edi. Yaqinda ushbu xizmatning javobini olish uchun DXMga borishim shart emasligi haqida eshitdim. Shu haqda ma'lumot bersangiz?

Gulbahor MIRZAYEVA

– Bu xabar to'g'ri. Farzandini bog'chaga joylashtirish uchun ariza davlat xizmatlari markazi orqali berilgan bo'lsa, bundan buyon yo'llanma shakllanishi bilan fuqaroning qo'l telefoniga SMS xabar orqali ariza raqami va maxfiy kod yuboriladi. Ushbu maxfiy kod bilan bog'chaga borish va uni mudiraga aytish kifoya. Avval bunday yo'llanma faqat qog'oz shaklida DXM orqali olinar edi. Maxfiy kod bog'cha mudirasiga aytilmaguncha, u yo'llanmani ko'ra olmaydi. Bu bilan esa korrupsiya holatlarining oldi olinadi.

BOSHQA ISHGA O'TKAZISHMOQCHI...

– Men ishlayotgan tashkilot rahbariyati meni boshqa ishga o'tkazmoqchi. Lekin ikkinchi tomon dastlabki sinov muddati belgilamoqchi. Bu talab qonunchilikka zid emasmi?

Bahrom UMAROV

– Siz aytayotgan holat qonun talablariga zid hisoblanadi. Mehnat kodeksiga ko'ra, dastlabki sinovdan o'tish mehnat shartnomasida shartlashilgan bo'lishi kerak. Bunday shartlashuv mavjud bo'lmagan taqdirda, xodim dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan deb hisoblanadi.

Dastlabki sinov faqat xodimni ishga qabul qilish chog'ida belgilanishi mumkin. Xodim boshqa ishga o'tkazilayotganda va boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborilganda, dastlabki sinov belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Dastlabki sinov muddati 3 oydan, tashkilotlarning rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, bosh buxgalterlar hamda tashkilotlar alohida bo'linmalarining rahbarlari uchun esa 6 oydan oshmasligi kerak.

PENSIYAGA USTAMA QO'SHILADIMI?

– Bir yig'ilishda pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlari mavjudligi haqida eshitib qoldim. Bunday ustama kimlarga to'lanadi?

Sardor AHMEDOV

– Ha, bunday ustama mavjud. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunga ko'ra, belgilangan tartibda hisoblab chiqarilgan pensiyalarga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- ☑ I guruh urush nogironlariga – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 150 foizi;
- ☑ II guruh urush nogironlariga – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 125 foizi;
- ☑ ko'zi ojizlik bo'yicha I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 100 foizi;
- ☑ I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 75 foizi;
- ☑ II guruh yolg'iz nogironligi bo'lgan shaxslarga – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 75 foizi;
- ☑ urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 50 foizi;
- ☑ 1941-1945-yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatni bajaragan shaxslarga – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining – 30 foizi;
- ☑ vafoti harbiy xizmat yoki ichki ishlar organlaridagi, Milliy gvardiyadagi xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan harbiy xiz-

matchilarning hamda ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya xodimlarining ota-onalariga va yangi nikohdan o'tmagan beva xotinlariga (beva erlariga) – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 30 foizi.

- ☑ O'zbekiston oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 100 foizidan 150 foizigacha.
- ☑ yoshidan qat'i nazar imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan artistlarga – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 75 foizi;
- ☑ teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlariga, teatr va musiqa san'ati ijodiy xodimlari tayyorlovchi o'quv muassasalarining professor-o'qituvchilari va konsertmeysterlariga, Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ro'yxatga ko'ra – pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining – 50 foizi.

Ma'lumot uchun: hozirda pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori – 347 ming so'mni tashkil etadi.

MEHNAT SHARTLARI XODIMNING ROZILIGISIZ O'ZGARTIRILISHI MUMKINMI?

– Ishlab chiqarish korxonasida ishlayman. Shu korxonada 6 yillik ish stajim bor. Lekin keyingi paytda ish joyimizda o'zgarishlar bo'lyapti. Bundan ko'pchilik xodimlar xavotirda. Aytingchi, ish beruvchi mehnat shartlarini xodimning roziligisiz o'zgartirishi mumkinmi?

Sirojiddin YO'LDOSEV

– Ayrim holatlarda mumkin. Agar texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmlarining qisqarganligi munosabati bilan avvalgi mehnat shartlari saqlab qolinishi mumkin bo'lmasa (masalan, xodim xatlarni yuborish yoki arxivlash bilan shug'ullanadi, tizimni elektronlashtirish natijasida esa bu ishlarni texnika bajarishi mumkin), ish beruvchi xodimning roziligisiz mehnat shartlarini o'zgartirishga haqli.

Ish beruvchi mehnat shartlarining o'zgarishi haqida xodimni kamida 2 oy oldin yozma shaklda, imzo qo'ydirib ogohlantirishi shart. Ko'rsatilgan muddatni qisqartirishga faqat xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra yo'l qo'yiladi. Ogohlantirish muddati pullik kompensatsiya bilan almashtirilishi mumkin. Ogohlantirish muddati tugagach, xodim yangi mehnat shartlarida ishlashni rad etsa, xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkin. Bunday holda xodimga ishdan bo'shatish nafaqasi va ish qidirish davrida o'rtacha oylik ish haqi to'lanishi bilan bog'liq kafolatlar qo'llaniladi.

Xodim ish beruvchi tomonidan mehnat shartlari o'zgartirilganligi ustidan shikoyat qilishga haqli.

"HUNARMAND" UYUSHMASIGA A'ZO BO'LMOQCHIMAN...

– Hunarmandchilik bilan shug'ullanaman. Tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmoqchiman. Meni qiziqtirgan narsa shuki, ro'yxatdan o'tish jarayonida "Hunarmand" uyushmasiga ham a'zo bo'lishim mumkinmi?

Saidrasul NE'MATOV

– Ha, albatta, siz bunday qulaylikdan foydalana olasiz. Avvallari Siz aytayotgan masalaning imkoni yo'q edi. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 13-oktabridagi qarori bilan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga qo'shimchalar kiritildi. Unga ko'ra, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimida hunarmandchilik faoliyati yo'nalishlari bo'yicha hunarmandchilik

subyektlari hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ariza beruvchilar xohishiga ko'ra "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lish haqidagi arizasini "Hunarmand" uyushmasiga kompozit usulda yuborish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, "Hunarmand" uyushmasiga hunarmandchilik subyektlari hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ariza beruvchilarning "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lish haqida Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali berilgan arizalarini qabul qilish va natijasini mazkur tizim orqali yuborish yo'lga qo'yilmoqda.

ALMASHTIRIB BERILMAGAN SHIRINLIK UCHUN PENYA TO'LANADIMI?

– To'y dasturxonini yaxshi niyatlar bilan bozordan ancha miqdorda shirinlik xarid qildik. Ammo uyga borib sinchiklab qaraganimizda, qadoqlarda ishlab chiqarilgan korxonada, ushbu shirinlik va uning tarkibi haqidagi ma'lumotlar keltirilmaganiga guvoh bo'ldik. Shirinliklarni almashtirish uchun qaytarib berdik. Sotuvchi ikki kundan keyin kelishimizni aytdi. Oradan bir hafta o'tdi hamki, almashtirishni paysalga solyapti. Bunday holatda sotuvchi bizga penya to'lashi kerak emasmi?

Mashrab HAMIDOV

– "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun talablariga ko'ra, iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga 7 kunlik muddatda, tovar sifatini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganida esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran 20 kun ichida almashtirib berishi shart.

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo'lmagan taqdirda, iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilingan paytdan e'tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho'l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste'molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o'tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi.

HAYDOVCHILIK GUVOHNOMAMNI QACHON ALMASHTIRISHIM KERAK?

– Haydovchilik guvohnomamni 2016-yilda olganman. Eshitishimcha, uni yangisiga almashtirish muddati oxirlab qolibdi. Shu haqida aniq ma'lumot bersangiz?

Salim OCHILOV

– Eski "prava"ni yangisiga almashtirish uchun davlat xizmatlari markazlariga yoki Ichki ishlar bosh boshqarmasi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalariga murojaat qilishingiz kerak. Yangi haydovchilik guvohnomasi olish uchun uyingizdan turib YalDXP (my.gov.uz) orqali buyurtma berishingiz ham mumkin.

2015-yildan keyin berilgan haydovchilik guvohnomalarini yangisiga almashtirishning oxirgi muddati 2023-yil 31-dekabr gacha. Ushbu muddatgacha almashtirilmagan guvohnomalar haqiqiy emas, deb hisoblanadi.

8 ADLIYA FAXRIYSI

KASBIDAN QADR TOPGAN
HUQUQSHUNOS

Inson umrini oqar daryoga qiyoslashadi. Shoshib o'tganini bilmay qolasan. Kimdir hayot degan buyuk ne'matdan unumli foydalanib, o'zidan bog'u rog'lar, ezguliklar, yaxshi nom qoldiradi. Kimdir uni shamollarga sovuradi. Bugun sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonimiz Davronbek Ibodovning hayotdagi shiori, maqsadi yaxshilik.

1953-yilda Andijon viloyatining Baliqchi tumanida tug'ilgan D. Ibodovning mehnat faoliyati, martaba va mansab darajalari Toshkent bilan bog'liq. Bir so'z bilan aytganda, uning orzulari Toshkentda ro'yobga chiqqan.

Zangiota tuman sudining oddiy xat tashuvchisi bo'lib o'z mehnat faoliyatini boshlagan, xuddi shu joyda sud majlisi kotibi, sud ijrochisi bosqichlaridan o'tgan Ibodov huquq tartibot idoralarida uzoq yillar samarali va halol mehnat qildi.

1976-yil Toshkent davlat universiteti (hozirgi Milliy) ning huquqshunoslik fakultetini tamomlagach, Zan-

giota tuman sudining sud ijrochisi bo'lib ish boshladi. 1978-yildan 1983-yilgacha Toshkent viloyat adliya boshqarmasining kadrlar bo'yicha maslahatchisi lavozimida ishladi. Kadrlar bilan ishlashdagi tajribasi qo'l kelib, Adliya vazirligining kadrlar boshqarmasiga katta maslahatchi lavozimiga ko'tarildi. Bir muddat Chirchiq shahar sudining stajyor-sudyasi, Adliya vazirligining FHDY bo'limi boshlig'i vazifasida faoliyat yuritdi. Saksoninchi yillarning o'rtalaridan to'qsoninchi yillarning o'rtalarigacha o'n yildan ortiq muddatda Chirchiq shahar hamda Bo'stonliq tuman sudining sudyasi bo'lib ishladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida sud-huquq tizimidagi islohotlarda bevosita ishtirok etdi. Qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida bor bilim va tajribasini ishga soldi. Adolat shiori bo'ldi, haqiqatga tayanib ish ko'rdi.

Shundan so'ng Toshkent viloyat adliya boshqarmasining bosh maslahatchisi, so'ngra Chirchiq shahar "Mirdjalilova N" xususiy notarial idorasining notarius yordamchisi, 2001-yildan Chirchiq shahar 1-sonli davlat notarial idorasi notariusi lavozimida ish yuritdi.

Katta hayot maktabidan saboq olgan, mas'uliyatli yo'llarni bosib o'tgan tajribali huquqshunos qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin, Vatanga sadoqat bilan xizmat qildi.

Oila davrasida faxrga munosib, do'stlar va shogirdlar davrasida qaddi va qadri doimo baland bo'lish har bir insonning orzusi. Davronbek aka ana shunday orzulari ro'yobga chiqqan, farzandlar kamolini ko'rayotgan, el-yurt o'rtasida o'zining munosib izzatini topgan insonlardan.

Qahramonimizni qutlug' 70 yosh bilan chin dildan muborakbod etamiz.

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri



Sadoqatsiz yori va'dasiga vafo qilmay, do'stiga turmushga chiqqani eshitib, hayotdan ixlosi qaytgan bir zobit yigitning sarson yurgan ishonchiyu umidini tasodifiy maktub qaytardi. Ko'ngli bir hamdardga zor yigit unga javob yozdi.



Stiv MASS

Zobitning xizmati yakuniga yetgach, ular markaziy vokzalda ko'rishishga ahd qildi. Bir-birini tanib olish uchun qiz oppoq kiyimda bir dona atirgul ko'tarib chiqishini aytdi. Yigit yo'l bo'yi o'ylanib ketdi: u qizning suratini sira ko'rmagan, hatto necha yoshdaligini, semiz yo oriqligi, go'zal yo xunukligini bilmaydi. Shunday bo'lsa-da, usiz yasholmasligini bilardi.

Yigit vokzalga kelib, uni kuta boshladi.

Belgilanganlaridek, soat beshga bong urgach, u ko'rindi. Bir dona atirgul ko'targan oq libosli ayolning yoshi taxminan oltmishlarda edi. Yigit ayolni ko'riboq ortiga o'girildi. Shu zahoti qaytib ketishni o'yladi, ammo ketolmasdi... U bir yil ichida qadrdonga aylangan ayolni tashlab ketolmasdi. Axir u umidsiz kunlarida madad bo'ldi. Bayramlarda sovg'a jo'natdi. Uchrashish yodi bilan yashashga undadi. Bunday ayol har qanday e'zozga loyiq! Yigit darhol uning qarshisida paydo bo'ldi va tiz cho'kib,

qo'lidan o'pib ko'rishdi. Keksa ayol kulib qo'ydi va ortida berkinib turgan qizga imo qildi:

– Adashdingiz, yaxshi yigit, mana, haqiqiy muhabbatingiz!

Yigit unga uyalib boqib turgan o'zi bilan tengqur go'zal bir qizni ko'rdi va ajablendi. Keksa ayol unga tushuntirdi:

– Nevaram o'z o'rniga uchrashuvga chiqishimni so'ragandi. Agar meni ko'rib ketib kolganingda, bari boshlanmay tugardi.

Yigitning muhabbati haqiqiylikiga va uni hech qachon tashlab ketmasligiga ishongan qiz unga qo'llarini uzatdi. Ikkisi uzoq va baxtli hayot kechirdi.

Adabiy ayvon

Kristi TILMANN



MO'JIZANING BAHOSI

Olti yoshli qizaloq Tessining ukasi og'ir kasal bo'lib qoldi. Otasining umidsizlik bilan oyisiga "Uni faqat mo'jiza qutqara oladi", – deganini eshitdi-yu, xonasiga yugurib kirdi. Tessi topgan-tutganini olib, dorixonaga qarab yugurdi. Peshtaxta yoniga yaqinlashdi va arang nafasini roslab:

– Men... mo'jiza sotib olmoqchiman, – dedi u dorixonachiga.

– Kechirasiz, tushunmadim? – so'radi dorixonachi.

– Ukam og'ir kasal. Uni faqat mo'jiza qutqarishi mumkin ekan.

Bir burchakda turgan odam qizaloqqa yaqinlashdi.

– Sizga qanaqa mo'jiza kerak, bo'talog'im? – deb so'radi.

– Men bilmayman, – hiqilladi qizcha.

– U holda, sizga qanday mo'jiza kerakligini bilish uchun ukangizni ko'rishim kerak, – dedi bashang kiyingan notanish odam.

Ostonada mashhur jarrohni ko'rgan ota-ona quvonchdan yig'lab yubordi. Onasining "Qiziq, bu mo'jizaning bahosi qancha turarkin?" – deganini eshitgan Tessi jilmaydi. Axir u bu mo'jiza qancha turishini aniq bilardi-da. Bor-yo'g'i bir yarim dollaru ellik tsent va jajji qizaloqning samimiy ishonchi.

Maktub

Garchi ular bir-birini tanimasa-da, o'zaro maktub almashardi. Shu tariqa, u qiz bilan bir yil xat yozishdi. Zobit maktublarni qadrlar va o'sha notanish qizsiz yashay olmasligini his qilardi. Ikkisi bir-birini ko'rmagan bo'lsa-da, o'rtada kuchli muhabbat tug'ildi.

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



Bosh
muharrir
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3500
Buyurtma – 3387

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5